

# PEDAGOGIK MAHORAT

2  
2023



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2-son (2023-yil, mart)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2023**

<https://buxdu.uz>

<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH</b>			
24.	<i>OMONOVA Dildora Nekmurod qizi</i>	Integrativ yondashuv asosida ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida “Chumolining jasorati” mavzusidagi hikoyani o‘qitish mashg‘ulotining umumiy qurilishi	127
25.	<i>UMUROVA Ma‘rifat Yoshievna</i>	O‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy shakllantirishda xizmat qiladigan xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyati	132
26.	<i>ИСРАЙЛОВА Илона Халитовна</i>	Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов	136
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH</b>			
27.	<i>RASHIDOV Anvarjon Sharipovich, NURIDDINOV Javlon Zafarovich, ISAQOVA Umida Hamraqu qizi</i>	Chizikli differensial tenglamalar sistemasini yechishda interfaol usullarning qo‘llanilishi haqida	143
28.	<i>JO‘RAYEV Akmal Razzoqovich, SHADIYEVA Nigora Sharipovna</i>	Dasturiy ta‘lim vositalari asosida talabalarning geografik obyektlarni 3D loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli	149
29.	<i>МАРДОНОВ Санжар</i>	Совершенствование лабораторных курсов по биохимии для студентов медицинских вузов с использованием электронного учебника	156
30.	<i>САФАРОВА Нафиса Сулаймоновна</i>	Электрокимё асослари мавзусини интегратив ёндашув асосида ўқитиш методикаси (Тиббий кимё курси мисолида)	160
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>			
31.	<i>XODJAYEV Ravshan Ixanovich</i>	O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar	166
<b>SAN‘AT</b>			
32.	<i>BO‘RIBOYEVA Dilrabaxon Norboy qizi</i>	Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning innovatsion usuli	170
33.	<i>RO‘ZIYEV Erkin Iskandarovich, TOJIYEV Javlon Karimboyevich</i>	Texnologiya o‘qituvchilari tayyorlashda xalq hunarmandchiligi va amaliy san‘ati ta‘limi mazmunini takomillashtirish	177
34.	<i>ОСТОНОВА Гулшод Раззоқовна</i>	Ўқувчилар томонидан санъат асарларини идрок этиш ва тасаввур қилишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш муаммолари	187
35.	<i>SODIQOVA Aziza Hayitovna</i>	Tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonida “easy design” (sodda loyiha) interfaol metodi	191
<b>TA‘LIM MENEJMENTI</b>			
36.	<i>САИДОВА Зилола</i>	Генезис и современное состояние теории и практики системы управления в системе образования	197
<b>MA‘NAVIYAT VA TARBIYA</b>			
37.	<i>BURXANOV Taxir Maxammatjonovich</i>	Bo‘lajak ofitserlarda ma‘naviy fazilatlarni takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlari	201
38.	<i>ORTIQOV Oybek Rustamovich</i>	Talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda Husayn Voiz Koshifiyning ta‘limotidan foydalanish	206
<b>PEDAGOGIK TA‘LIMOTLAR TARIXI</b>			
39.	<i>ИЗБУЛЛАЕВА Гулчехра Валериевна</i>	Дидактические произведения как основа средств воспитания	211
40.	<i>QODIROVA Aziza Bekmurodovna</i>	Sayyid Burxoniddin Muhaqqiq Termiziy ijodida ijtimoiy-axloqiy munosabatlar	216

mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e‘tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

**Xulosa.** Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchining kreativligini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. O‘quvchining matnning ma’lum qismini o‘qib, keyinchalik sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar hamda ularning natijalarini taxmin qila bilish ko‘nikmasi, muhim matnni mantiqan davom ettira olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinfi uchun darslik –Toshkent, 2021-y, 7-8-bet.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi 3-sinfi uchun darslik –Toshkent, 2021-y, 12-13-bet.
3. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi (ona tili). –Toshkent, 2021. -143- bet.
4. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. -Toshkent 2017-y.
5. (2022).Lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda media ta’lim vositalaridan foydalanish. Pedagog’s jurnali, 1(1), 182-183.
6. Omonova, D. Methodological fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach.

**O‘QUVCHILARNI MA’NAViy-AXLOQiy SHAKLLANTIRISHDA XIZMAT QILADIGAN  
XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI**

*Umurova Ma’rifat Yoshiyevna,  
Buxoro davlat universiteti  
Pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi*

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda musiqa madaniyati darslarini o‘qitishda o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni, xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, xalq qo‘shiqlari, allalar, laparlar, mavsumiy qo‘shiqlar, ayyom va marosim qo‘shiqlari, hayit va bayram qo‘shiqlari, marsiyalar, xalq qo‘shiqlarining tarkibi, yakka ijro, jamoa bo‘lib kuylash, musiqa tinglash, musiqa asboblari, ma’naviy-axloq, fazilat, milliy tarbiya.*

**СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ ПЕСЕН, СПОСОБСТВУЮЩИХ  
ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМУ ФОРМИРОВАНИЮ СТУДЕНТОВ**

*В статье рассмотрен процесс формирования духовно-нравственных качеств у учащихся при проведении занятий по музыкальной культуре в общеобразовательных школах, педагогические основы формирования у учащихся чувства патриотизма посредством народных песен.*

***Ключевые слова:** фольклор, народные песни, аллас, лапар, сезонные песни, айомные и обрядовые песни, праздничные и торжественные песни, марши, сочинение народных песен, сольное исполнение, коллективное пение, слушание музыки, музыкальные инструменты, духовная нравственность, добродетель, национальное образование.*

**THE SPECIFIC CHARACTERISTICS OF FOLK SONGS THAT SERVE IN THE  
SPIRITUAL AND MORAL FORMATION OF STUDENTS**

*The process of forming spiritual and moral qualities in students during the teaching of music culture classes in general secondary education schools, and the pedagogical foundations of forming a sense of patriotism in students through folk songs were discussed.*

***Key words:** folklore, folk songs, allas, lapars, seasonal songs, ayom and ritual songs, Eid and holiday songs, marches, composition of folk songs, solo performance, collective singing, listening to music, musical instruments, spiritual morality, virtue, national education.*

**Kirish.** O‘zining dastlabki yaratilish davridanoq xalq qo‘shiqlari xalqning yozilmagan tarixiga aylandi. “Og‘zaki ijod”, “xalq og‘zaki ijodi”, “og‘zaki adabiyot”, “el adabiyoti” kabi nomlar bilan atalgan badiiy adabiyotning ilk namunalari sanalmish xalq qo‘shiqlari turmush, hayot darsligi sifatida yosh avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani bajarib kelmoqda. Keyinchalik, yozuv madaniyati paydo bo‘lgach, o‘zida so‘z san‘ati asarlarini yaratish iqtidorini his qilgan, xalq orasidan chiqqan odamlar bevosita xalq og‘zaki adabiyotiga suyangan holda individual - yakka shaxs ijodiga mansub dastlabki qo‘shiqlari yaratdilar. Musiqaning bu yo‘nalishi shakllanib rivojlangach, yozma asarlar tushunchasi paydo bo‘ldi. Yaratilish usuliga ko‘ra farq qiluvchi og‘zaki va yozma qo‘shiqlar bir-birini inkor qilmadi, balki ijodiy hamkorlikni davom ettiraverdi. Ammo shu bilan birga har bir adabiyot o‘ziga xos xususiyatlarini ham yo‘qotmadi. Bu jihatdan xalq qo‘shiqlari jahon folklorshunosligi fani tan olgan beshta xususiyatga ega. Ular:

1. An’anaviylik.
2. Og‘zakilik.
3. Jamoalik va ommaviylik.
4. Variantlilik va versiyalilik.

5. Anonimlik (asarni yaratgan muallif ismining noma’lumligi). Ayni paytda yillar davomida xalq og‘zaki ijodi asarlari bilan yaqindan munosabatda bo‘lish yana bir xususiyatning namoyon bo‘lishini tasdiqlamoqda. Bu xususiyatni shartlilik deb atash mumkin. Ammo ilmda shartlilik haqida yetarli nazariy tadqiqot olib borilmagani sabab uni ham xos xususiyat sifatida ko‘rsatishni lozim topmadik. Shu bilan birga aziz talabaning tafakkurida paydo bo‘lgan qator-qator savollarga javob berishi mumkinligini hisobga olib shartlilik haqida ham ayrim mulohazalarni bayon etishni ma’qul ko‘rdik. Bu haqida keyinroq to‘xtalamiz.

**Asosiy qism.** An’anaviylik xalq og’zaki ijodining xos xususiyatlari qatorida asosiy belgi sifatida ularning har biriga bildirilishi mumkin bo’lgan munosib bahoni inkor etmagan holda, avvalgidek jamoalichni emas, an’anaviylikni ko’rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki butun dunyo xalqlari ijodida bo’lganidek, o’zbeklarda ham og’zaki ijod asarlarining yaratilishi va ijrosi asrlar davomida shakllangan va bugungi kungacha davom etib kelayotgan an’analarga suyanadi. Xalq og’zaki ijodidagi an’anaviylikni uch yo’nalishda tahlil qilish lozim. Birinchidan, ming yillardan buyon maqoldan topishmoqqacha, qo’shiqdan dostonlargacha bo’lgan asarlar og’zaki an’anada yaratilmoqda, og’zaki tarzda yashab kelmoqda. Ikkinchidan, folklor asarlarining ijrosi ijro qilinish vaziyati (to’y va boshqa vaziyatlar) va ijro usuli jihatidan an’anaga ega. Uchinchidan, an’anaviylik og’zaki asarlarning matnida namoyon bo’ladi. Avvalo, an’ana so’zining ma’nosi bilan tanishaylik. Bu so’zga o’zbek tilining izohli lugatida: “Hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar” deb ta’rif berilgan. Agar ta’rifni to’y yoki boshqa yig’inlarni o’tkazish tartibiga tatbiq qilsak, mazkur tadbirni uyushtirish qoidalari tushuniladi. Biror og’zaki ijod namunasining ijro qilinishini nazarda tutsak, uni amalga oshirishdagi muhit, vaziyat, ijro usulini tasavvur qilamiz. Ijro an’anasi deganda, dastlab, uning marosimlarga aloqasi bor yoki yo’qligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, “Yor-yor”, “Kelin salom”lar to’yda, marsiyalar azada aytilsa, lirik qo’shiqlar, loflar, lagifalar hayotda vujudga kelgan oddiy vaziyatda aytilishi mumkin. Topishmoqlarni, filologiya fanlari nomzodi Z.Xusainova xabar berishiga ko’ra, qadimgi zamonlarda, asosan, to’ylarda aytish odati saqlangan bo’lsa, hozirgi kunda topishmoq aytish musobaqasini sinfda, dam olish paytlarida, ba’zan yo’l- yo’lakay o’tkazish mumkin bo’lmoqda. Shuningdek, o’tgan asrning o’rtalarigacha maxsus ertakchilar ertak aytish uchun tinglovchilarni tayyorlab olganlar, ijroning ko’ngilli chiqishi uchun alohida joy, turli narsalar (isiriq, tuz, qo’l, sochiq, suv, non va hokazolar) ni shaylab qo’yar edilar. Bugun esa bobo bolasini ovutish uchun istagan paytda ertak aytib beraveradi. Mashhur professional ertakchilar esa yo’q hisobida. Ijro an’anasi deganda, doston aytish xaqida alohida to’xtash zarur bo’ladi. Fozil Yo’ldosh o’gli, Ergash Jumanbulbul o’gli, Pulkan, Islom shoirlar an’anasi bugungi kunda xam Shoberdi baxshi, Shomurod baxshi, Kahhor baxshi ijrosida to’liq saqlangan. Doston ijrosidagi dumbirada kuy chalish, terma aytish, she’riy parchalarning mazmuni, bugin soniga qarab kuy tanlash hozir ham bor. Masalan, Chori baxshi hayotligida huzuriga tez-gez borar edik. Ammo biron marta terma aytmay doston boshlaganini ko’rmaganmiz. Xorazm dostonchiligidagi an’ana ham deyarli to’liq saqlangan. Xorazm baxshilari dostonni ijro etishdan avval, albatta, “Aliqambar” kuyini tinglovchilarga chalib beradilar. Shundan so’ng doston aytish boshlanadi. Agar Qashqadaryo, Surxondaryo va shu hududlar atrofidagi baxshilar dumbira jurligida bugizda doston aytsalar, Gurlan, Xiva, Urganch atrofidagi baxshilar juvovozlikda ochik ovoz bilan doston ijro etadilar. Aytmoqchimizki, xalq og’zaki ijodi asarlarini ijro etish an’anasi, umuman olganda, yurtimiz viloyatlarida, asosan, avvalgi ko’rinishda yashab kelmoqda. Folklor ekspeditsiyasi paytida qo’shiq aytadigan momolardan marsiya matnini yozib ololmaganmiz. Ular irim qilib, bevaqt qo’ni-qo’shnilarning qo’shiq aytilayotgan joyga sarosimada yigilishlarini istamaganlar va marsiya aytishdan voz kechganlar. Bu holat bugun ham saqlanib qolganiga bir necha marta guvoh bo’ldik. Shunday qilib, og’zaki ijod asarlarining ijro an’anasi hali qayta-qayta o’rganishni talab qiladigan soha hisoblanadi. An’anaviylikdagi matn an’anasi ijrodan ancha murakkab. Chunki xalq og’zaki ijodida asarning to’liq mohiyati uning matnida namoyon bo’ladi. Asardan nazarda tutilgan goya, mazmun, obraz xususiyatlari, kompozitsiya unsurlari: bayon, portret, dialog, monolog; badiiy tasvir vositalari - bularning xammasi xalq ijodi qoidalariga suyangan holda, an’anaviylik tamoyiliga asoslangan tarzda so’z vositasida namoyon bo’ladi. Ehtimol, shuning uchun ham matn an’anasi ijronikidan ko’ra murakkab tizimga ega. Xalq og’zaki ijodidagi matn an’anasining o’zini ham ikki ko’rinishga ajratish mumkin. Birinchidan, xar bir asarning janr xususiyatlarini belgilovchi an’anaviylik (hajm, shakl, mazmun) bo’lsa, ikkinchidan, badiiy tasvir vositalari - badiiy san’atlarda namoyon bo’ladigan an’anaviylik. Xalq og’zaki ijodidagi matn an’anasi har bir janrga mansub asarlarda namoyon bo’ladi. Xususan, maqollardagi hajm cheklanganligi, mazmun ko’lamining kengligi, qo’shiqlarning lirik mohiyati, ertaklar hajmining muayyan o’lchov bilan belgilanmagani (ularning mazmun va tasnif turiga ko’ra bir-ikki saxifadan, ellik-oltmish sahifagacha borishi), doston hajmining cheklanmagani, latifalardagi voqeani qisqa muddatda aytib ulgurish qoidasi va hokazolarning hammasi matn an’anasi bilan bog’liqdir.

Qo’shiqning mustaqil janr atamasi esa asarda ifodalangan mazmunga qo’shiqning ijro o’rni, tarzi va funksiyasiga qarab turli sifatlovchilar bilan birgalikda nomlanadi. Masalan, qo’shiq mehnat jarayonida ijro etilgan bo’lib mazmunan mehnat jarayoni bilan bog’liq bo’lsa, bunday qo’shiqlar mehnat qo’shiqlari deb yuritiladi. Yoki qo’shiqda ishq-muhabbat kuylansa bunday qo’shiq lirik qo’shiqlar deyiladi va hakoza.

Xalq qo’shiqlarida voqelik yakka shaxsning kechinmalari orqali aks etadi. Biroq bu kechinmalar jamoaning his-tuyg’ulari bilan uyg’unlashgan bo’ladi. Chunki xalq og’zaki ijodida yakka shaxsning kechinmalarini jamoa kechinmalarini ifodashning bir vositasi bo’lgan. Shuning uchun xam xalq qo’shiqlarida mehnatkash xalqning ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi to’laqonli aks etgan.

Qo`shiqlar xalq ma`naviyatining qudratini, mehnatkash omma irodasining bukilmaligini ifodalab, kishilarni ruhan tetiklikka jasoratga, mehnatsevarlikka va elparvarlikka, do`stlikka, sevgida sadoqatga chorlaydi. Xalq qo`shiqlari, asosan, barmoq vaznida yaratiladi. Masalan, Alisher Navoiy o`zining “Mezonul avzon” asarida qo`shiq janrlariga ham alohida to`xtalib o`tgan.

Uning ko`rsatib o`tishicha, qo`shiq kuylanish va o`yin vositasida ijro etilishi ham mo`ljanlangan xalq qo`shiqlarining aruz vazniga mos keluvchi turlari haqida to`xtalib, u ikki vazni qayd etadi. Birinchisi, xalq qo`shiqlarida tabiiy tovushlar uyg`unlashishi tufayli vujudga kelgan vazndir, ikkinchisi esa H.Boyqaro tomonidan isloh qilinib, u ko`pgina qo`shiqchilar orasida keng tarqalgan bo`lib, u ramali musammani mahzuf vaznidan iborat. O`zbek xalq qo`shiqlari janri mansubiyati, yaratilishi davri, ijro o`zini turi kabilari jihatidan xilma-xillik kasb etadi. Bu jihatdan xalq qo`shiqlari marosimi va marosimga aloqasiz qo`shiqlarga bo`linadi. To`y va boshqa marosimlarda ijro etiladigan yoki motam yig`inlari marosim qo`shiqlarini tashkil etadi.

Marosimga aloqasiz qo`shiqlarga esa mehnat hamda lirik qo`shiqlarga mansub, yana beshik qo`shiqlari ham bor.

O`zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og`zaki so`z san`ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning yuksak idealini aks ettiruvchi og`zaki ijodi bo`lganidek, o`zbek xalqi ham qadimiy tarixga, boy va rang-barang og`zaki adabiyot durdonalariga ega bo`lgan xalq durdonalardandir. Xalq, ommasi tomonidan yaratilib, uning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avlodlardan avlodga o`tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq, va qo`shiqlar, latifa va naqllar, ertak va dostonlar o`zbek xalq, og`zaki ijodini tashkil qiladi. Yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasi bo`lgan ana shu asarlarda ajdodlarimizning urf-odatlarini va an`analari, odob-axloqi va madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlarini, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy badiiy-falsafiy va diniy qarashlari o`zining yorqin ifodasini topgan. Xalq, yaratgan asarlar o`z navbatida qadimgi o`zbek xalqining e`tiqodi va dunyoqarashini o`rganishda, folklor namunalari ilgari surilgan ilg`or g`oyalar umuminsoniy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatlarni bilib olishda asl manba bo`lib xizmat qiladi. Og`zaki adabiyot, xalq, og`zaki badiiy ijodi yoki «folklor» deb yuritiladi. «Folklor» atamasi birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo`llangan bo`lib, inglizcha folk — xalq, lore — bilim, donolik degan ma`nolarni bildiradi. Folklor — sinkretik xususiyatga ega bo`lib, xilma-xil san`at turlariga xos unsurlarni o`ziga mujassamlashtirgan. Uning ba`zi namunalari so`z va kuy uyg`unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do`mbira jo`rligida kuylash an`anaviy bo`lsa, qo`shiq dutor va childirma jo`rligida kuylanadi.

Xalq, og`zaki ijodi necha asrlar mobaynida tarixning yo`ldoshi, uning aks sadosi bo`lib kelgan. Xalq hayoti, turmush tarzi, ruhiy dunyosining oynasi hisoblangan folklor asarlari ming yillar davomida to`plangan ijodiy tajribalardan iborat badiiy-estetik qadriyatlardan biridir. Folklor asarlarini o`rganish va tartibga solish orqali xalq turmushi, orzu-istaklari hodisa ma`lumotlar olish bilan bir qatorda badiiy fikr ibtidosi va uning rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari, hayot hodisalarini badiiy tasvir ob`ekti sifatida his etish an`anasining estetik omillari, xalqona poetik fikr tavsifiga oid qimmatli ilmiy kuzatishlar olib borish mumkin. Xalq, og`zaki ijodi o`zining ba`zi xususiyatlari bilan yozma adabiyotlardan farqlanib turadi. Kuyida mana shu xususiyatlar haqida so`z yuritimiz. Folklor — ogzakch ijod. Xalq, poetik ijodi yozuv paydo bo`lmasdan ko`p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og`zaki an`ana bilan bogliqdir. Folklor asarlarining uzoq, asrlar davomida yaratilishi va og`zaki ijro etilishi uning shakl va mazmuniga ta`sir ko`rsatadi. Ma`lumki, ayrim tarixiy dalillarning to`liq, esda kelmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib kelishi yoki o`zgarishi mumkin. Folklorning og`zakilik xususiyati uning keng tarqalishiga, xalq orasida ommalashuviga sabab bo`ladi. Ammo shu bilan birga, og`zaki ijod namunasi o`tmish zamonlarda yozma tarzda mavjud bo`lmagani uchun uni ijro etuvchi shaxsning vafoti bilan yo`q bo`lib ketishi ham mumkin. Folklor asari o`gizdan o`gizga o`tishi tufayli shaklan va mazmunan qanday o`zgarishlarga uchramasin, bu hol uning g`oyaviy-badiiy va ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etadi.

Bola tug`ilishidan tili so`zga o`rganib yurib ketguncha qadar kattalar ularga alla aytib beradilar, onalar-tarbiyachilar bola bilan turil xil mashg`ulotlar o`tkazadilar, turmushda bola uchun zarur bo`lgan dastlabki hayotiy qoidalarni o`rgatadilar. O`quvchi-yoshlar uchun ana shu xil aytilib yurgan, bir ikki emas, barcha onalar og`zida tarqalgan folklorning bu janrini beshik qo`shiqlari deganlar. O`zbek xalqining uzoq davrlaridan buyon yaratgan bola tarbiyasi haqidagi pedagogik tajribasi jismoniy tarbiyasida beqiyosi buyukdir. Garchi beshik qo`shiqlari qadimdan bor bo`lsalar ham, ularni xalq og`zaki ijodining janri sifatida to`plash va ilmiy jihatdan o`rganish bizda asrimizning yigirmanchi yillaridagina boshlanadi.

Beshik qo`shiqlari davri bolalar folklorini yuqorida aytganimizdek, birmuncha kengroq doirada: allalar, ovunchoqlar, ibrat-o`git so`zlari misolida ko`rib chiqish mumkin. Onalarning farzandiga, beshik yonida aytgan lirik kuylari o`zbeklarda ko`pincha, “alla” nomi bilan yuritilgan. Allaning qadim vaqtlarda “balu-baluu” deyishi ham ma`lum. A.Navoiy esa “alla” aytishni “navoro” deb atadi.

Ko`zining nozi eldan eshitib uyqu,

Anga uyqu keturmakka navog`o`

A.A.Ibn Sino “alla”larning bola tarbiyasidagi rolini aytib, bu masalada faqat jismoniygina emas ruhiy holati ham diqqatimizni tortadi: “Bolaning mijozini kuchaytirimoq uchun, unga ikki narsani qo`llamoq kerak. Biri – bolani sekin-asta tarbiyalash, ikkinchisi – uni uxlatish uchun odat bo`lib qolgan musiqa va allalashdir.

Allalar poetik jihatdan go`zal onalarning ichki tuyg`ularining bayoni sifatida ham xalq ijodining bo`lak turlaridan ajralib turadi.

Muzayyana Alaviya mazkur asarlarga: «...oddiy hayot hodisalari tutdirgan hissiyotni ifodalagan, kuyga solishga qulay, qisqa, esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo`lgan she`r qo`shiq bo`la oladi» [4], - deb ta`rif beradi.

Qo`shiq - xalq og`zaki ijodining eng qadimiy va ommaviy shakllaridan biri bo`lib, kuyga solib aytiladigan kichik lirik she`rdir. Qo`shiqlar ham boshqa xalq og`zaki ijodi janrlari kabi shu xalqning mehnati, kurashi, an`anaviy ehtiyojlari natijasida vujudga keladi. Ular g`oyaviy-mazmuniy va janr xususiyatlariga ko`ra xilma-xil boladi.

**Xulosa.** Mahmud Qoshg`ariyning «Devoni lug`otit-turk» asaridan qo`shiqlarning eng qadimiy turlari ma`lum. Jumladan, ov qo`shiqlari, mehnat qo`shiqlari, mavsum, marosim qo`shiqlari, marsiya, madhiya va b. Qo`shiqlar yoshlarda go`zallik tuyg`ularini shakllantiradi, dillarga orom bag`ishlaydi, shuningdek, yoshlarni vatanga sadoqat, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Bolalar dastlab ona allasini eshitadi, asta-sekin ovunchoq qo`shiqlar, o`yin qo`shiqlari bilan tanishib boradilar. Masalan, «Boychechak», «Oq terakmi, ko`k terak», «Hayu chitti gul» kabi qo`shiqlar bolalarga zavq-shavq bag`ishlaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma`naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O`zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma`ruzasi. // "Xalq so`zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O`zbekiston, 2017. 242b.

3. Aliev A. Ma`naviyat, qadriyat va badiiyat . - T.: Akademiya, 2000.

4. Alaviya M. O`zbek xalq qo`shiqlari. T., 1959.

5. Mahmudova M. Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi. –Samarqand. 2003. -174 b.

6. Rajabov, T. I. (2021). O`quvchi-yoshlarga o`zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish. Science and Education, 2(11), 1094-1103.

7. 14.Rajabov T. I. Ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskoy narodnoy muzyki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – №. 3 (47).

9. O`quvchilarda vatanparvarlik tuyg`isini shakllantirishda badiiy adabiyot va musiqaning roli U.M. Yoshiyevna - Central Asian Research Journal for ..., 2022

10.Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda musiqaning o`rni Pedagogik maxorat jurnali Maxsus son –Buxoro, 2021. –B. 103-109.

11. The role of the creative heritage of eastern thinkers in the formation of the spiritual and moral outlook and musical perception of young people Umurova Marifat Yoshiyevna 2021/4/23 102-104

12. Yoshiyevna U. M. The method of organizing" group singing" in teaching" musical culture" in secondary schools //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – S. 271-274.

13. Umurova M. Yo. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.

14. Ramazonova O`X. Talabalarda ma`naviy-ahloqiy tushunchalarni shakllantirish, guruh bilan ishlash va uni boshqarish tamoyillari. Scientific progress 1 (5), 2021.